

**AL-XORAZIMIYNING HOZIRGI JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN
XISSASI HAMDA MUSTAQILLIK YILLARIDA UNING XOTIRASIGA
BO'LGAN E'TIBOR**

Xasanov Xojimurod

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al Xorazmiyning hayot yo'llari, ijodi shu bilan birga uning bugungi jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hisasi sanab o'tilan. Al-Xorazmiyning Hozirgi jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hisasini keying davr olimlari tomanidan qiziqishlar bildirilgani va uning asarlari ustida turli xildagi tadqiqotlar olib borilganligi aytiladi. Al-Xorazmiydan keyingi davr olimlari nafaqat sharq olimlari, balki g'arb olimlari ham uning asarlarni o'rganishgan. Al-Xorazmiyning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilinganligi va dunyo olimlari uning asarlaridan XVI asrga qadar asosiy qo'llanma sifatida foydalanliklari to'g'risida so'z yuritiladi. Shu bilan birga uning mustaqillik yillaridan oldin va keyingi hotirasiga bo'lgan e'tibor hususida malumotlar beriladi.

Kalit so'z: <Aljabr va muqobala> , abaka, Bog'dod shahrida, "Zij", "Asturlab bilan ishlash haqida kitob", arab tilida, K. Nalinno.

Abstract: In three articles, the ways of life of Abu Ja'far (Abu Abdullah) Muhammad ibn Musa al-Khorazmi, as well as his contribution to world civilization today, are listed. It is said that after Al-Khorazimi's contribution to modern world civilization, the products produced by the scientists of the time were produced and various things were carried out on it. The scientists of the period after Al-Khorazim, Eastern scientists, but also Western scientists, studied his works. Al-Khorazimi's works have been translated into many languages, and scholars of the world used his works as a guide until the 17th century. information is provided.

Key words: <Algebra and Muqabala>, abaqa, Baghdad city, "Zij", "Book about working with Asturlab", in Arabic, K. Nalinno.

Аннотация: В трех статьях перечислены пути жизни Абу Джафара (Абу Абдуллы) Мухаммада ибн Мусы аль-Хоразми, а также его вклад в мировую цивилизацию сегодня. Говорят, что после вклада Аль-Хоразими в современную мировую цивилизацию были произведены продукты, произведенные учеными того времени, и на нем были выполнены различные вещи. Его работы изучали

ученые периода после Аль-Хоразима, восточные ученые, а также западные ученые. Произведения аль-Хоразими переведены на многие языки, и ученые всего мира пользовались его трудами как путеводителем вплоть до XVII века. предоставляется информация.

Ключевые слово: <Алгебра и Мукабала>, абака, г. Багдад, "Зидж", "Книга о работе с Астурлабом", на арабском языке, К. Налинно.

G'arb olimlaridan J.Sarton o'zining fan tarixiga Oid asarining kirish qismida butun IX asrning birinchi yarnini Xoazimiy davri deb atydi va Xorazimiy <O'z davrining eng buyuk matematigi va agar o'sha davrdagi butun axvolni e'tiborga olsak, xamma davrlarning ham eng buyuk siymosidir> deb olimga yuksak baxo beradi.

Al-Xorazimiyning to'liq ismi Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al Xorazmiy bo'lib u 783-yil xiva shahrida tug'ulan, 850-yil Bog'dod shahrida olamdan o'tgan. Xorazimiy yoshlik davrilaridan kitobga mexr qo'yadi. Dastlabki malumotni Xiva shahrida olan va yetuk olim bo'lib shakillangan. Bunda arab istilosidan so'ng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm fani ananalari asosiy ro'l o'ynagan. Xuroson noibi xalifa Ma'mun 819-yil Bog'dodni egallagandan so'ng o'zi bilan O'rta osiyolik olimlardan Xorazimiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Xabash al-Xisob Marvaziy, Abul Abbas Javhariy va boshqalarni o'zi bilan olib ketib, o'ziga hos ilmiy jamoa tashkil qladi. Bu jamoa fan tarixidagi dastlabki rasmana akademiya deb qaraladigan ilmiy muassasa -<Bayt ul-xikmat> (<Donishmandlik uyi>) ning o'zagini tashkil etadi. Bu akademiya Xorazimiy yetakchi olim va ilmiy raxbar bo'lan. U shu davrdan Bog'dodda istiqomat qilgan. Xorazimiy yigirmadan ortiq asarlar yozgan shundan o'nga yaqin asarlari bizgacha yetib kelgan. Bular "Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"-algebrak asar, "Hind hisobi haqida kitob" yoki "Qo'shish va ayirish haqida kitob"-arifmetik asar, ".Kitob surat-ul-arz"- geografiyaga oid asar. "Zij", "Asturlub bilan ishlash haqida kitob", "Asturlub yasash haqida kitob", "Asturlub yordamida azimutni aniqlash haqida ", "Kitob ar-ruhoma", "Kitobat-tarix", "Yaxudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola". Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyning asari tarkibida, ikktasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas. Shu asarlarning o'ziyoq ko'rsatadiki, Xorazimiy insoniyat sivilizatsiyasiga buyuk xissa qo'shgan olimdir.

O'rta Osiyodan yetishib chiqqan olimlarning ko'pchiliklari arab tilida yozganlar. Chunki o'rta asrlarda mamlakatimizga islom dini bilan birga arab tili ham kirib kelgan. Bu til umum <musulmon olami>da fan tiliga aylandi. Olimlar, shoirlar bu tilde ijod



qilar, yirik-yirik ilmiy asarlar shu tilda yaratilib, so'ng tarqalar edi. Xorazimiy ham arab tilida ijod qilgan.

Muhammad Xorazimiy yoshligidan matematikaga juda berilgan va o'zining bu qobiliyati bilan xalq o'rtasida xurmatga sazovor bo'lgan edi. U Sharqda mavjud bo'lgan ilmiy asarlarni qunt bilan mutolaa qiladi. Matematika, astranomiya, geometriya, geografiya, meditsina va tarixni o'rganadi. U o'zining ilmga qattik kirishishi natijasida, xatto, arab, fors, hind, yunon, tillarini ham o'rganib oladi va shu tilda yozilgan asarlarni mutolaa qilib, o'z bilimini oshirishga muvaffaq bo'ladi.

O'sha vaqtda Sharqda hindlarning astranomiya va matematikaga oid <Sindihind> degan asari olimlarga qo'llanma bo'lib yurar edi. Lekn bu asarning ko'p joylarini tushunish qiyin bo'lib, ancha-muncha joyida xatolar xam bore edi. Shu sababdan undan foydalanadiganlar juda qiynalib, ko'p kishilar bu kitobdan baxramand bo'laolmas edilar. Xorazimiy bu kitobni qayta ishlaydi. U kitobga yangi boblar ham qo'shadi: keyn tushunib bo'lmaydigan iboralarni yengillashtirib, xatolarini o'zining tekshiruvlari asoida qaytadan tuzatadi va unga <Qisqargan sindihind> Degan nom beradi. Bu asar Xorazimiyning o'z tajribalari asosida qaytadan ishlanib, yangi, ajoyib bir ilmiy asar xoliga keladi.

<Qisqargan sindihind> butun dunyoga mashxur bo'lib ketdi. Tarixchi Jamoliddin Kiftiyning so'ziga qaraganda, to XII asrgacha, yani Kuftiy yashagan asrgacha bu asar olimlar o'rtasida keng ko'lamda foydalanib kelingan.

<Qisqargan sindihind> kitobi Yevropa va Sharqda astranomya va matematika sohasida yangi davr ochdi, hamda Xorazimiyning aynan shu asari orqali hindlarning o'nlik raqamlari <Arab raqamlari > nomi bilan butun dunyoga yoyildi. Bundan ilgari Yevropada juda qiyin xisoblangan yunon-lotincha abaka raqamlari edi. Xorazimiy algebra fanining asoschisidir. U birinchi bo'lib <Aljabr va muqobala> degan asar yozib algebra faniga asos slogan. Bu asar Yevropada lotincha va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Xorazimiydan keyn o'tgan Sharq olimlaridan Abu Komil Shujo ibn Aslam u haqida shunday yozadi: <Men xisob olimlarining kitoblarini ko'p o'qidim. Bu kitoblar orasida Muhammad Muso Xorazimiyning <Aljabr va muqobala> kitobini eng sog'lom qoidali va eng to'g'ri qiyosli deb topdim. Shunday bo'lgach, Xorazimiy kitobini oldinga qo'yish, uning bilim va fazilatiga iqror bo'lishimiz lozim. Chunki, Xorazimiy bu kitobni yozishda eng oldingi va bu sohada birinchi bo'lib yozgan kishidir. U ixtiro

qilgan qoidalari orqali < Aljabr va muqobala>ning bekik qolgan joylarini o'rgandik, aqldan uzoqlarini aqlga muvofiqlashtirdik, qiyinlarini osonlashtirdik>.

<Xikmat uyi>da Xorazimiy o'zining <Yangi astronomik jadvallar> (Zij)ini yozadi. Bu asar 1126-yilda lotinchaga tarjima qilinadi. Asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan, o'sha lotinчасi yetib kelgan.

Muhammad Muso Xorazimiy geografiyaga oid asar ham yozadi. Uning bu sohadagi <kitobu surat al arz> (Yer surati kitobi) asari < Yerning axoli yashaydigan choragining tasviri> degan nom bilan mashxur bo'ldi. Bu asar Xorazimiyning juda ko'p yillar olib brogan kuzatishlari orqali yozilgandir. Xorazimiy yerni yeti iqlimga bo'lib, xarita chizib beradi. Xozir bizga buyuk olimdan to'rtta xarita yetib kelgan. Xorazimiyning asarlari Sharq va G'arb geografiyasi uchun juda kata axamiyatga ega bo'ldi. Xatto italiyalik mashxur olim K. Nalinno Xorazimiyning geografik asarlari ustida olib brogan ko'p yillik ilmiy tekshirish ishlarida bunga yuksak baxo beradi. K. Nalinno ilmiy ijodining birinchi paytlarida <Yevropadagi xech bir xalq Xorazimiy erishgan yutuqqa erishishga va bunday asar yaratishga qobil emas edi>- deb ko'rsatadi.

1878-yilda Qoxirada bu asarning nodir qo'lyozma nusxasi topildi. 1894-yilda olim K. Nalinno uni italiyan tiliga tarjima qildi.

XIX asr boshlarida Xorazimiy merosiga qiziqish boshlangan. Xorazimiy <Algebra> sini 1817-yilda K. Koulburuk qisman, 1831-yilda F. Rozen to'liq xajmda Londonda, 1838-yilda G. Libro Parijda chop ettiradi. Xorazimiyning <Arifmetika> sini birinchi martrta B. Bonompani Rimda (1857), K. Forrel Germaniyada (1963), A.P. Yushkevich Maskvada (1954) chop ettirishgan. Xorazimiyning <Zij> ini o'rganishga ham kata e'tibor berilgan. Uni 1914-yilda N. Zuter, so'ng O. Neygebauer (1962), V. Millas, Goletsteyn (1963) va boshqalar nashr qilishgan. Xorazimiyning <Geografiya> si birinchi martrta X.fon Mjik (1926) tomonidan chop etilgan. Olimning boshqa qo'lyozmalarini izlab topish, o'rganish, chop etish va tarjima qilish- matematika tarixi sohasining dolzarb muammolaridan bo'lib qolmoqda. 1983-yilda Xorazimiy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan uning barcha asarlari rus va o'zbek tillariga nashr qilindi.

O'zbekistonda Xorazimiyning xayoti va faoliyati bilan birinchi bo'lib T.N. Qori Niyoziy qiziqqan.



1983-yilda Xorazimiyning 1200 yillik yubeleyi nishonlanadi. Mustaqillik yillaridan keyn ham Xorazimiyning xotirasiga bo'lgan e'tibor o'zining yangi bosqichiga qadam qo'yadi. Mustaqillik yillarida bir qator ko'cha va binolarga uning nomi berildi. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 sentyabrdagi PQ-3274-sonli qaroriga muvofiq "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'tishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy ixtisoslashtirilgan maktabi tashkil qilindi. Xattoki 2017-yil Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ga ham Xorazimiy nomi berildi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 sentyabrdagi PQ-3274-sonli qaroriga muvofiq "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'tishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida" gi qarori.
2. А.Ирисов, А.Носиров, И.Низомиддинов <Ўрта Осиёлик қирқ олим.-Т.: -1961
3. Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамаси ҳузуридаги Тошкент ислом университети. Ўзбекистон республикаси фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти. Баҳром Абдухалимов.<Байт Ал-хикма>ва Ўрта осие олимларининг Богдоддаги илмий фаолияти.Т.: -2004
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.Х харфи
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Al-Xorazmiy>
6. <https://www.facebook.com/itschool.uz/photos/muhammad-al-xorazmiy-nomidagi-axborot-texnologiyalariga-ixtisoslashgan-maktab-on/2347173905382922/>